

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA VA AXBOROTLASHTIRISH
AGENTLIGI

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
SAMARQAND FILIALI
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI VA KASB TA'LIMI
FAKULTETI

AXBOROT TA'LIM TEXNOLOGIYALARI KAFEDRASI

5811100– «KORXONALAR SERVISI» (ELEKTRON VA KOMPYUTER
TEXNIKASI BO'YICHA)TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA BAKALAVR
AKADEMIK DARAJASINI OLISH UCHUN

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: AXBOROT RESURS MARKAZI FAOLIYATINI
BOSHQARISH UCHUN MA'LUMOTLAR BAZASI VA DASTURIY
VOSITALARINI ISHLAB CHIQISH**

Himoyaga tavsiya etildi

Kafedra mudiri

_____ Yakubjanova D.

“ _____ ” _____ 2014

Bajardi: 4 – kurs

talabasi Quvondiqov A.

Ilmiy rahbar:

ass. Mamanazarov B.

S A M A R Q A N D – 2014

MUNDARIJA

	KIRISH	3
1-BOB	ARM faoliyatini boshqarishni avtomatlashtirish haqida umumiy mal’umotlar	7
1	Predmet sohasi tahlili.....	7
2	Avtomatlashtirish ob’ekti tavsifi.....	15
2-BOB	ARM faoliyati boshqaruvi tizimi uchun Ma’lumotlar bazasini ishlab chiqish loyihalashtirish	18
1	Ma’lumotlar bazasini loyihalash bosqichlari.....	18
2	Ma’lumotlar bazasi mantiqiy modelini qurish.....	26
3	Axborot tizimi xisobotlari uchun so’ro’vlarni shakllantirish.....	34
4	ARM faoliyati boshqaruv tizimining dasturiy interfeysi va undan foydalanish.....	41
3- BOB	ARM faoliyatida axborot va texnika xavfsizligi	46
1	Axborot xavfsizligi.....	46
2	Komputerdan foydalanish qoidalari va texnika xavfsizligi.....	49
	XULOSA	52
	Foydalanilgan adabiyotlar	53
ILOVA 1	55
ILOVA 2	66

KIRISH

Ishning dolzarbligi. Ma'lumki, har qanday jamiyatning rivojlanishi, uning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy rivojlanishi bilan bog'liqdir. Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniyatning rivojlanishi esa fan va ta'limning rivojlanishiga bog'liqdir. Fan va ta'limning rivojlanishi o'z navbatida, axborot resurslari hamda axborot qidirish vositalarining qay darajada rivojlanganligiga bog'liqdir. Demak yuqoridagilardan shunday xulosa chiqarish mumkin: Fan va ta'lim tizimini rivojlantirish uchun dastlab bu ikki sohaning asosiy axborot ta'minotini tashkil etuvchi kutubxonalar: axborot-kutubxona va axborot-resurs markazlari (AKM, ARM) faoliyatini takomillashtirish talab qilinadi[7].

Respublikamizning axborot-resurs, axborot-kutubxona markazlari va kutubxonalarda 100 mln. dan ortiq turli shakl va ko'rinishdagi axborot resurslari saqlanmoqda. Shunday qilib, ARM, AKM va kutubxonalar faoliyatini rivojlantirmasdan, axborot qidirish vositalarini takomillashtirmasdan turib ta'lim va fan sohasini rivojlantirish mumkin emasligini tushunib oldik, zero bir yilda dunyoda 10 000 000 dan ortiq maqola va 1 000 000dan ortiq kitoblar chop qilinishini nazarga olsak, bunday ulkan axborot oqimidan keraklisini ajratib olish naqadar mushkul ish ekanligini tushunib etamiz. Fan va ta'lim sohasini rivojlantirmasdan Respublika iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirib bo'lmasligi isbot talab qilinmaydigan haqiqatdir. Rivojlangan davlatlarning tarixi ham buni ko'rsatib turibdi.

Rivojlangan jamiyat barpo etish uchun AKM, ARM va kutubxonalarni rivojlantirish, axborot qidirish vositalarini takomillashtirish dolzarb vazifalar qatoriga kiradi. Shu sababli ham Respublika Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika aholisini axborot-kutubxona bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori ham AKM, ARM va kutubxonalarda yangi axborot texnologiyalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalanib kutubxonlarga ko'rsatilayotgan xizmat sifatini yuksaltirishga qaratilgandir[7].

Qarorga muvofiq yangi tipdagi ARM, AKM va kutubxonalar barpo qilishda ularning elektron katalogi bazasini (EK) shakllantirish eng muhim vazifalardan biri

hisoblanadi, zero EK har qanday avtomatlashtirilgan kutubxonaning eng muhim qismi bo'lib, u jahon standarti talablariga to'liq javob beradigan tarzda yaratilgan taqdirdagina ARM, AKM va kutubxonadagi asosiy jarayonlarni avtomatlashtirish imkoniyati yaratiladi. Qarorda ko'rsatilgan vazifalarni bajarish, ya'ni ana'naviy kutubxonadan zamon talablariga javob beradigan axborot-resurs markazlari barpo qilishga o'tish uchun kutubxonadagi asosiy axborot jarayonlari (axborotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatish) avtomatlashtirilishi kerak. Kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirishdan asosiy maqsad: kutubxonadagi mehnat unumdorligini, samaradorligini, axborot maxsulotlari va xizmat ko'rsatish madaniyati hamda sifatini oshirishdir. Asosiy kutubxona jarayonlari avtomatlashtirilgach kutubxonadagi bir qator qo'lda bajariladigan monoton murakkab operatsiyalarni bajarish kompyuterlar zimmasiga yuklanadi va kutubxona xodimlari intellektual ishlarni (axborotlarni tizimlashtirish, klassifikatsiyalashtirish, annotatsiya va turli referatlar yozish) bajarishga o'tadilar.

Ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishida TATU SF ARM ning ishini avtomatlashtirish maqsad qilib qo'yilgan. Bizga ma'lumki har qanday kutubxona oldidagi asosiy vazifalardan biri bu kutubxona fondini katalogda aniq va to'liq aks ettirishdir. Ma'lumki katalogda aks etmagan har qanday kitob kitobxonlar uchun noma'lumligicha qoladi. Shu sababli ham kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirining birinchi bosqichida elektron katalog yaratish ishiga e'tibor qaratiladi. Keyingi paytlarda matbuotda e'lon qilinayotgan ba'zi bir maqolalarda "elektron kutubxona", "elektron katalog" yaratilganligi va yangi tipdagi ARM lar barpo qilinganligi to'g'risidagi fikrlarni o'qish mumkin. Bu maqola mualliflarining ko'pchiligi "elektron kutubxona"ning "elektron katalogi" bo'lishi kerakligi va elektron katalog yaratish ishi o'ta murakkab jarayon ekanligidan behabar bo'lsa kerak.

Bizga ma'lumki EK bazasini shakllantirishda ikki usuldan foydalaniladi: birinchisi kutubxonani avtomatlashtirishga mo'ljallangan tizimning bazasiga bibliografik ma'lumotlar qo'lda kiritiladi, ikkinchi usul korporativ kataloglashtirish usuli bo'lib bunda EK bazasiga kiritilayotgan bibliografik ma'lumotlar avval

tayyorlangan yozuvlarni o'z bazasiga ko'chirib olish va tegishli to'ldirishlar kiritish orqali yaratiladi.

Ishning yangiligi. Ma'lumki har bir maktab litsey va kasb-hunar kollejlari oliy o'quv yurtlari o'zining kutubxonasi va axborot resurslar markaziga ega. Har bir talaba kitob olish, yoki shu erning o'zida kitobni o'qish imkoniyatiga ega bo'ladilar, ya'ni, har bir o'quvchi o'ziga kerakli kitobni tez va osongina olishni xoxlaydi, Buning uchun har bir adabiyot ro'yxati bazaga kiritilgan bo'lishi va bu adabiyot bazada mavjud yoki yo'qlini, yoki qaysi o'quvchi tomonidan olinganligini avtomatlashtirish masalasi qo'yilgan. Bizlar bunday korinishdagi ko'plab avtomatlashtirilgan tizimlarni bilamiz, bizning avtomatlashtirilgan bazamiz faqat TATU SF ning ARM ga mo'ljallangan bo'lib, TATU SF kutubxonasidagi adabiyotlar va elektron kitoblar ro'yxati kiritiladi va har bir o'quvchi ro'yxatga olinadi.

Ishning amaliy ahamiyati. ARM ishini osonlashtirish hamda kutubxona ishini boshqarishdan iborat. Mazkur loyihadan ko'zda tutilgan maqsad:

- kutubxona faoliyati bilan bog'liq jarayonlarni tezlashtirish va kutubxona ishini engillashtirish;
- Talabalar va mavjud axborot resurs manbalarini ro'yxatga olish va ARM MBBT yaratish, mavjud tizimni takomillashtirish;
- kutubxonachilarni avtomatlashtirilgan kutubxonada ishlashga o'rgatish uchun sharoit yaratish.
- Talabalarga adabiyotlarni tezroq olish va kutubxona bilan bog'liq jarayonlarda vaqtdan unumli foydalanish;
- Qog'ozli xujjatlardan elektron xujjatlarga o'tish va kutubxona ishini avtomatlashtirish;

Bitiruv malakaviy ishning hajmi va tuzilishi. Ishning matni kompyuterda yozilgan 69 bet hajmidan iborat bo'lib, uning strukturasi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va 2 ta ilova tashkil qiladi.

1-bob ARM faoliyati va uni boshqarishni avtomatlashtirishga qaratilgan bo'lib, unda ARM haqida umumiy mal'umotlar, uni tashkil qilishning dolzarbligi va uni tashkil qilishga qo'yiladigan talablar hamda Avtomatlashtirilayotgan TATU SF ARMning faoliyati tahlil qilingan.

2 – bobda ARMning ma'lumotlar bazasini tashkil qilishning bosqichlari, usullari va avtomatlashtirilgan ARM uchun so'rovlar va formalar tashkil qilish uchun dasturiy vositalari ishlab chiqishga qaratilgan. Ishlab chiqilgan dasturiy vositani amaliyotda qo'llash va dasturdan foydalanish tartibi ko'rsatilgan.

3 - bob Axborot xavfsizligi va komp'yuterda texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidalari bayon etilgan.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishida olingan asosiy natijalar va takliflar keltirilgan.

Adabiyotlar qismida bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ilovalarda dasturning ishlash jarayoni, oynalarni hosil qilish kodi va dasturning kodi keltirilgan.

1-BOB ARM faoliyatini boshqarishni avtomatlashtirish haqida umumiy mal'umotlar

1.Predmet sohasi tahlili

XXI asr axborot asri bo'lib, uning ahamiyati va qimmatini kundan-kunga oshib bormoqda. Ma'lumki, ta'lim tizimida barcha fundamental bilimlar asosan an'anaviy bosma shaklda tayyorlangan o'quv adabiyotlar orqali olinadi. Mutaxassislar xulosalariga ko'ra, oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining kelajakdagi faoliyati uchun zarur bo'ladigan bilimlarning hali to'liq kashf etilmaganligini inobatga olib barcha o'quv muassasalarida, oliy o'quv yurtlarida o'quv tizimini yangidan isloh qilish, zamonaviy texnologiyalar asosida elektron kutubxonalar chiqish va ularni amaliyotga keng jalb qilish, rivojlangan mamlakatlar o'quv tizimidagi yangiliklar va yutuqlarni o'rganish, ularni o'zimizda tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda ilm-fan jadal suratlar bilan rivojlanib, ko'pchilik tamonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda. Dunyoda ilmiy izlanishlar bo'yicha axborotlar doim o'sib, ularni tahlil qilish jarayoni tabora murakkablashib va kengayib bormoqda[8].

Hozirgi zamon mutaxassisi qaysi sohada ishlamasin, o'zining mutaxassisligiga tegishli yangilik va o'zgarishlarni bilib turishi va bilim saviyasini doimiy ravishda tinmay oshirib borishi kerak bo'ladi. Bunga misol tariqasida evropa va amerika mamlakatlarining boshqaruv tizimini olish mumkin. Ularda qog'ozbozlik bilan hal qilinadigan ishlar deyarli qolmadi, barcha ishlar elektron variantdagi hujjatlar va elektron imzolar bilan hal qilinadigan bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida ARM(axborot resurs markazi) tizimidagi ma'lumotlarni yangilash muhofazasini va maxfiyligini ta'minlash shartlarini talab etadi. Yaqin yillar ichida mamlakatimizda ham shu sohadagi ishlar raqamli imzo va hujjatlar tizimiga o'tish to'la va to'kis yakunlanadi. Ilm-fan yangi qirralarining yaratilishi favqulotda holat emas, balki bu taraqqiyot va davr talabidir[8].

Kutubxonachilik va ARM sohasida standartlarni yaratish va tatbiq qilish bu jarayonlarni avtomatlashtirish uchun zamin yaratadi. ARM va kutubxona

faoliyatini aniq va samarali boshqarish, foydalanuvchilar qiziqishlarini himoya qilish, yaratilayotgan axborot resurslari va ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining va tezligining yuqori bo'lishi, talablarini qay darajada bajarilishiga bog'liq bo'ladi. Kutubxonachilik va ARM sohasida avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimining dasturiy, axborot, lingvistik ta'minotini yaratish uchun asos bo'ladi. Shunday qilib, ARM va kutubxonachilik ishi bo'yicha ARM ishini boshqarish o'rganish, ishlab chiqish, moslashtirish, tasdiqlash va tatbiq qilishni tashkil etishda hal qilinishi lozim bo'lgan o'ta dolzarb muammolar sirasiga kiradi[7].

Zamonaviy kutubxonalar bosma hujjatlarni saqlaydigan passiv omborlardan, faol ishlaydigan avtomatlashtirilgan axborot markazlariga, elektron kutubxonalariga, hujjatlarni elektron pochta, global telekommunikatsiya va Internet orqali uzatuvchi va qabul qiluvchi markazlarga aylanmoqda. Axborot texnologiyalarini jamiyatimizning turli sohalarida keng tatbiq qilinishi, kitobxonlarga xizmat ko'rsatuvchi kutubxonalar faoliyatida tub islohotlar o'tkazishni talab qilmoqda. Respublikamizda tashkil qilinayotgan AKM va ARM oldiga an'anaviy kutubxona xizmati ko'rsatishdan o'z axborot resurslarini yaratish va jahon ilmiy-ta'lim axborot resurslaridan foydalanish imkoniyatini berish yo'li bilan axborot kutubxona xizmatini ko'rsatishga o'tish kabi bir qator vazifalar qo'yilgan.

Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan dasturiy vositalar bozorining tahlili [Karimov U. Kutubxonani avtomatlashtiruvchi tizimlar (KAT) bozorining tahlili: kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishda yangi imkoniyatlar.// Informatika va energetika muammolari O'zbekiston jurnali. Toshkent, Fan, 2006, № 2, 65-76 b.] shuni ko'rsatmoqdaki, Rossiyada ishlab chiqilgan barcha dasturiy vositalar SIBID turkimiga kiruvchi standartlar asosida yaratilgan. Demak, kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan milliy tizim yaratish uchun ishni dastlab kutubxonachilik va nashriyot sohasi uchun umumiy bo'lgan standartlar tizimini ishlab chiqish, tasdiqlash va tatbiq qilishdan boshlash zarur. Ba'zi bir mutaxassislar mazkur soha uchun standartlar tizimini tahlil qilmasdan turib, to'g'ridan – to'g'ri Rossiya standartlari (SIBID)

asosida kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan milliy tizim yaratishga kirishmoqchi bo'ladilar. Kutubxona texnologiyalarini avtomatlashtirishga mo'ljallangan milliy tizim yaratishga bo'lgan bunday yondashuv muvaffaqiyatga olib kelmaydi.

Bugungi kunda juda ko'plab tushunchalarni mualliflar turlicha talqin qilmoqdalar, masalan, elektron kutubxona, avtomatlashtirilgan kutubxona, raqamlashtirilgan kutubxona, virtual kutubxona, avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimi, avtomatlashtirilgan axborot-kutubxona tizimi, kutubxonani avtomatlashtiruvchi tizim va boshqalar. Axborot, kutubxonachilik va nashriyot ishi sohasiga oid atamalar, asosiy tushunchalar va ta'riflar standartlari qabul qilinganda bu sohadagi chalkashliklarga chek qo'yilgan bo'lardi. Kutubxona-axborot faoliyati, nashriyot ishi va axborotlar sohasi uchun tegishli bo'lgan xalqaro standartlarning umumiy soni 60 dan ortiq. Bu standartlarning birortasi ham O'zbekiston kutubxonachilik ishiga tatbiq qilish uchun o'rganilmagan va tasdiqlanmagan.

Respublikamiz Prezidentining 2006-yil "Aholini kutubxona-axborot bilan ta'minlashni tashkil etish to'g'risida"gi qarori ijrosini ta'minlash borasida kutubxonachilik ishi sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Qarorda ko'zda tutilgan yangi tipdagi axborot-kutubxona, axborot-resurs markazlarini (AKM, ARM) tashkil qilish, katta mablag' va vaqt talab qiladigan murakkab masala hisoblanadi.

Ma'lumki, zamonaviy talablarga javob beradigan kutubxonada avtomatlashtirilgan kutubxona-axborot tizimini (AKAT) yaratmasdan turib, qarorda ko'zda tutilgan vazifalarni to'liq bajarish mumkin emas. AKATning ta'minotlari (dasturiy, texnik, axborot, lingvistik, tashkiliy-texnologik va kadrlar) orasidan bugungi kunda ko'pchilikning e'tiborida turgani bu dasturiy ta'minotdir[8]

Axborot -resurs markazidan foydalanishning qoidalari.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Axborot - resurs markazi (ARM) faoliyati demokratik, insonparvarlik, umumiy foydalanishga qulaylik, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi fuqarolilik shaxsning erkin kamol topishining prinsplariga asoslanadi.

1.2. ARMdan foydalanish bepul, ARM tomonidan ko'rsatiladigan pulli xizmatlarning ayrim turlari ro'yxati ular uchun to'lanadigan xaq miqdori qonun xujjatlarida belgilanadi.

2. ARMning asosiy vazifalari

2.1. Universal axborot resurslarni milliy va chet el nashrlari fondini shakllantirish saqlash va berish.

2.2. Foydalanuvchilarga ARMda hamda mintaqaning axborot kutubxona markazidagi hujjatlar va boshqa materiallarni olish imkoniyatini yaratadi.

3. Foydalanuvchilarning huquq va majburuyatlari

3.1. ARMdan foydalanish huquqi mazkur ARM xizmat ko'rsatadigan xududda yashaydigan fuqaroligi, yoshi ijtimoiy va boshqa jixatdan mansubligidan qat'iy nazar barcha axoliga shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalarga beriladi. Ushbu xuquq axborot resurslari bilan komplektlashning, axborotlarni, shu jumladan ARMlar aro abonement tizimi orqali berish, shuningdek kutubxona - axborot xizmati ko'rsatishning boshqa shakillari bilan taminlanadi.

3.2. Foydalanuvchilar quyidagi xuquqlarga ega:

ARM fondidan istalgan xujjatlarni vaqtincha foydalanish uchun olish shuningdek mintaqaning ARMdan va boshqa AKM xujjatlarni bosma yoki elektron nusxalarini hujjatlarni elektron vositada yetkazib berish tizimi orqali qilish va olish. Bibliorafik ma'lumotnoma axborot xizmatidan xamda ARM tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning boshqa turlaridan foydalanish. ARM tomonidan o'tkaziladigan axborot ommaviy tadbirlarda qatnashish. ARMni jamoat kengashiga saylash va saylanish.

3.3. Foydalanuvchilar ARMga yozilish uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvoxnoma, pasportni yoki ularni o'rnini bosadigan xujjatni, zarur miqdordagi

fotosuratni taqdim etadilar xamda kitobxon biletini va ro'yxatdan o'tkazish varaqasini rasmiylashtirish uchun ma'lumotlar beradilar. Boshqa shaxarlik fuqarolari vaqtinchalik biletini pasportini yoki uni o'rnini bosadigan hujjatlarni ko'rsatgan holda oladilar. Boshqa mamlakat fuqarolari biletini o'z mamlakati pasporti yoki belgilangan tadbirga rasmiylashtirilgan shaxsni tasdiqlovchi boshqa xujjat asosida oladilar.

3.4. Foydalanuvchilarga biryo'la foydalanish uchun beriladigan xujjatlar soni ARM tomonidan yakka holda tartibga solinadi. Noyob va qimmatli nashrlar hamda xujjatlar shuningdek e'lon qilinmagan materiallar foydalanuvchilarga belgilangan tartibda beriladi.

3.5. ARM fondlarida zarur xujjatlar mavjud bo'lmagan taqdirda foydalanuvchilar uning nusxalarini mintaqaning AKMdan olishi mumkin.

3.6. Foydalanuvchilar ARMdan olingan xujjatlarni va boshqa materiallarni extiyot qilishi shart. Foydalanuvchi xujjatlar va materiallarni olishda ularni ko'zdan kechirishi va biron bir nuqson borligi aniqlanganda bu to'g'rida ARM xodimiga malum qilishi kerak.

3.7 ARM fondiga zarar etkazgan shaxslar qonun xujjatlariga muvofiq moddiy jinoiy yoki boshqacha tarzda javob beradilar.

3.8. ARM fondidan olingan xujjatlar va materiallarni yo'qotgan yoxud ularga tiklab bo'lmaydigan darajada ziyon etkazgan foydalanuvchilar ularni tegishli ravishda xuddi shunday yoki ARM xodimlari tomonidan teng qimmatli deb etirof etilgan xujjatlar va materiallar bilan almashtirishni, almashtirish mumkin bo'lmagan taqdirda ularning qiymatini bir necha barobar miqdorda to'lanishi shart. Qiymatining necha barobarda to'lanishi ARM mutaxasislari yoki jalb etilgan mutaxasislar tomonidan yo'qotilgan yoki yaroqsizlantirilgan xujjatlarni qiymatidan kelib chiqqan xolda hamda amaldagi tartibga soluvchi xujjatlarga muvofiq belgilanadi.

3.9. ARMdan foydalanish qoidalarini buzganligi uchun foydalanuvchilar ARMdan foydalanish xuquqidan ARM ma'muriyati tomonidan belgilangan muddatga maxrum qilinishi mumkin.

4. ARMning foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha majburiyatlari.

4.1. ARM fondlariga xujjatlar materialarning ularni saqlanishini taminlovchi belgilangan qoidalarga muvofiq xisobga olish saqlash va foydalanishni amalga oshirish ma'lumotnoma bibliografik apparatni, shu jumladan elektron katalogni yuritish tavsiyanoma tusidagi bibliografik qo'llanmalarni ishlab chiqish

4.2. ARM quyidagilarga majbur:

- foydalanuvchilarni ARM dagi va undan tashqaridagi barcha axborot resurslaridan foydalanish imkoniyati bilan taminlash;
- foydalanuvchilarning istaklarini o'rganish va eng to'liq qondirish;
- spravka bibliografik ma'lumotnoma - axborot xizmati ko'rsatishni takomillashtirish ushbu maqsadlarda foydalanuvchilar bilan yakka tartibda va guruxlar bo'yicha ish olib borishning turli shakllaridan foydalanish
- foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishda yuksak madaniyat va malakalilikni taminlash zarur xujjatlar va materiallarni qidirib topish va olishda zarur yordam ko'rsatish;
- foydalanuvchilarning qiziqishlari va axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish asosida turli manbalardagi axborot resurslarini bergan xolda tabaqalashtirilgan ARM axborot xizmat ko'rsatishni amalga oshirish;
- zarur axborotni qidirib topishga o'qitishda mustaqillikni amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish va mustaqil ravishda ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirishga ko'maklashish;
- fondlarda zarur xujjatlar va materiallar mavjud bo'lmagan taqdirda ularni qidirib topish ishlarini amalga oshirish xamda ularni ARMLar aro aboniment shu jumladan xalqaro aboniment tizimi orqali taqdim etish;
- ommaviy tadbirlarni yuqori saviyada o'tkazish;
- ARMning ijobiy nufuzini yaratishga ko'maklashish ARM fo'ndlarini va uning tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni reklama qilish foydalanuvchilarning ehtiyojlarini o'rganish xamda ularning xoxishlariga muvofiq yangi xizmatlarni tashkil etish.

ARMni rivojlantirish quyidagi muhim omillarga asoslanadi:

- Texnik ta'minot;
- Dasturiy ta'minot;
- Axborot ta'minoti;
- Kadrlar ta'minoti.

ARMni talabalarning kundalik mashg'ulotlariga integratsiyalash imkonini berdi.

Bugun o'quv jarayoniga shunday axborot va pedagogik texnologiyalar tatbiq etilmoqdaki, bunda darslik ta'limning bosh vositasi va axborotning asosiy manbai rolini bajarolmay qoladi. Talabalar endi dastlabki manbalarga kirib borish imkoniyatiga ega bo'lib, o'zlari uchun zarur bilimlar, faktlar, axborotni xoh bosma, xoh elektron shaklda bo'lsin mustaqil topa olishlari lozim[17].

Axborotning zamonaviy tashuvchilari fondiga ega bo'lgan ARMLar ishida shaxsning axborot olish madaniyatini shakllantirish bosh vazifaga aylanadiki, bu narsa kitobxonlarni kutubxonachilik-bibliografik, mutolaa madaniyatiga doir bilimlar, shuningdek, kompyuter savodxonligi bilan ta'minlaydi. Kitobxonlar markazdan alohida yangi axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalangan holda axborotni izlashga doir bilim va malakalar hosil qilishlari, zarur axborot mahsulotlari—ko'chirmalar, ma'ruzalar, referatlar, sharhlarni mustaqil ravishda tayyorlash texnologiyasini o'zlashtirishlari lozim.

Axborot-resurs markazi faoliyatini boshqarishda «Ta'lim muassasasi axborot-resurs markazi to'g'risida namunaviy Nizom» ishlab chiqilib, u ARM ish amaliyotiga joriy qilingan. Unda OTM axborot-resurs markazi faoliyatining umumiy qoidalari, markazning asosiy vazifalari va funktsiyalari aks etgan. Shuningdek, «Ta'lim muassasasining axborot-resurs markazidan foydalanish qoidalari», «Xodimlarning lavozim vazifalari» tasdiqlangan.

ARMLardagi kutubxonachilik jarayonlarini avtomatlashtirish (kataloglashtirish, komplektlash, kitob berish, xizmat ko'rsatish va hokazolar) uchun mo'ljallangan Avtomatlashtirilgan kutubxona tizimining mavjud bo'lishi ham ko'zda tutiladi[8].

Kutubxonalarni avtomatlashtirish holati. Avtomatlashtirilgan kutubxona (AK) tizimlarining rivoji axborot texnologiyalarining umumiy rivojini o'zida to'liq aks ettiradi. Kompyuter bajaradigan ishi va tarkibiga ko'ra odatdagi kutubxonaga juda o'xshab ketadi. Kompyuter texnologiyasida ishlatiladigan ba'zi bir atamalar, masalan: "boshlang'ich modullar kutubxonasi", "katalog", "yuklanadigan modullar kutubxonasi" kabilar shular jumlasidandir. Shaxsiy kompyuter orqali iste'molchiga xizmat ko'rsatish jarayoni ham kitobxonlarga kutubxonada ko'rsatilayotgan xizmatga o'xshab ketadi. Katalogdan ma'lumotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash jarayoni, kataloglashtirish parametrlarini tasniflash va boshqalar bir-biriga o'xshash. Bularning hammasi kutubxona jarayonlarini avtomatlashtirish mumkinligini ko'rsatadi. Ya'ni kutubxonadagi asosiy jarayonlar: ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ishlov berish, qidirish va uzatishni to'liq avtomatlashtirish mumkin[17].

Kutubxonalarni avtomatlashtirish usullari joriy qilinmasdan avval ular faqat o'zlarining kitobxonlariga xizmat qilganlar. Aniq bir kutubxonaga a'zo bo'lgan kitobxon faqat shu kutubxona axborot resursidan foydalana olgan, mazkur kutubxonada bo'lmagan axborot resursidan faqat "kutubxonalararo abonement" orqali foydalanish mumkin bo'lgan. Ammo har qanday nashrni ham "kutubxonalararo abonement" orqali jo'natish oson ish emas. Nashrni bunday jo'natish vaqt va mablag' talab qiladi. Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishda yana bir cheklash bor edi: kutubxonalar kitobxonlarga nashrlarni faqat odatdagi holatda (masalan: kitob shaklida) berishlari mumkin edi. Kutubxonalarda kompyuterlardan va Internetdan foydalanish yangi imkoniyatlarni yaratadi. Bu esa o'z navbatida turli fizik tashuvchilardan (magnitli tasmalar, disklar, SD-ROMlar va boshqalardan) foydalangan holda elektron hujjatlarning keng tarqalishiga olib keldi. Bunda masofadan turib axborot olish va axborot uzatishning roli beqiyosdir.

Kitobxonlarga xizmat ko'rsatishning zamonaviy shakllarini o'zlashtira borgan kutubxonalar o'z kuchlarini elektron hujjatlar va Internet resurslaridan foydalanishga yo'naltirdilar. Bunday maqsadga erishish uchun bir qator huquqiy va texnologik masalalarni echish va kutubxona ishi konsepsiyasini qayta ko'rib

chiqish zarur edi. Elektron kutubxona yaratuvchilarga shu narsa aniq bo'lib qoldiki, maqsadga erishish uchun manfaatdor tomonlar kuchlarini birlashtirish zarur ekan. Natijada elektron kutubxonalar yaratish ishiga dastlab alohida tashkilotlar kirishgan bo'lsa, so'ngra bu ish milliy va xalqaro darajadagi ishga aylandi[9].

2. Avtomatlashtirish ob'ekti tavsifi

O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 30 maydagi "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida"gi PF-3080-sonli Farmoniga muvofiq Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2005 yil 25 avgustdan Axborot –resurs markazi tashkil etilgan. O'z faoliyati davomida ARM da bir qator ishlar amalga oshirilgan. Axborot-resurs markazida ilmiy, badiiy, mutaxassislik va boshqa adabiyotlar mavjud bo'lib, ta'minlanganlik me'yor darajasini tashkil etadi. Professor-o'qituvchilar, xodimlar xamda talabalar mavjud mutaxassislikka oid adabiyotlardan, badiiy adabiyotlardan, gazeta va ilmiy jurnallardan muntazam foydalanadilar. Mazkur qonun va farmonlar ijrosini bajarish maqsadida filialning Axborot resurs markazi qoshida alohida kompyuter sinfi tashkil etilib, u Ziyonet tarmog'iga ulangan.

TATU Samarqand filialida ARM fondida 1707 nomda 15200 nusxa kitob va 38 nomda gazeta- jurnallar mavjud.

2013 yilda TATU "Axborot-resurs markazi" tomonidan ingliz tilidagi sovg'a etilgan mutaxassislik fanlariga oid adabiyotlarni qabul qilib olingan. Bu adabiyotlarning elektron variantlari ham mavjud.

ARM o'quv zalida professor-o'qituvchi va talabalar shug'ullanishi uchun zamonaviy imkoniyatlar yaratilgan. Ular o'zlari uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarga ega bo'lish uchun zarur imkoniyatlarga ega. Talabalar Ziyonet tarmog'iga ulanib, sohaga doir muhim ma'lumotlarni tezkorlik bilan olishlari va qayta ishlashlari mumkin. Ma'ruza matnlari, sohalarga oid jurnallar, o'quv-uslubiy

ko'rsatmalar professor-o'qituvchi hamda talabalarning ilmiy ishlari va kurs loyixalari yaratish uchun kerakli ilmiy, ilmiy-uslubiy va nazariy manbalar mavjud.

Filial "Axborot-resurs markazi"ga boshlab professor-o'qituvchilar o'z fanlaridan mukammallashtirib kengaytirilgan xamda talabalarni barcha so'rov va talablariga javob beradigan o'quv-uslubiy majmualarini tayyorlab asl nusxada va elektron shaklini topshirib ARM fondini boyitmoqdalar. Talabalar o'quv-uslubiy majmuani xar ikki ko'rinishidan xam keng ko'lamda foydalanmokdalar.

O'sib kelayotgan yosh avlodning intellektual extiyojlarini qondirish, ma'naviy madaniy va axloqiy qadriyatlarni asrash, zamonaviy talablarni inobatga olgan holda kutubxona tarmog'i takomillashtirish va shu orqali talabalarni tizimli va keng axborotlar bilan ta'minlash maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 20 iyundagi "Respublika axolisini axborot-kutubxona ta'minotini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-381 sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida TATU Samarqand filialida Axborot- resurs markazi tashkil etildi. Axborot-resurs markazi Samarqand shaxridagi joylashgan viloyat axborot-resurs markazi, barcha OTMlarning axborot-resurs markazi va o'rta maxsus, kasb- xunar kollejaridagi ARMLari bilan ham hamkorlik qilib kelmoqda. Axborot-resurs markazida Jami shtatlar soni 6 ta bo'lib, bugungi kunda 3 nafari oliy ma'lumotli va 3 nafari o'rta maxsus ma'lumotli xodimlar ishlaydi.

ARMning umumiy fondida 1707 nomdagi 15540 nusxa darslik, o'quv qo'llanmalar, badiiy va ilimiy ommabop adabiyotlar, xorijiy adabiyotlar, uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, uslubiy ko'rsatmalardan iborat. Bundan tashqari ARMning elektron kutubxonasida 3600 nomdagi elektron resurslar mavjud.

2013 yilda TATU "Axborot-resurs markazi" tomonidan ingliz tilidagi sovg'a etilgan mutaxassislik fanlariga oid adabiyotlarni qabul qilib olingan. Bu adabiyotlarning elektron variantlari ham mavjud.

Filialda server mavjud. ARM zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan. Elektron kutubxonasida 20 ta kompyuter mavjud. ARMda lokal tarmoq mavjud va u TATU SF tarmog'iga ulangan, tezligi 100 mbit/s. Internet tarmog'i mavjud, tezligi 2

mbit/s. Korporativ tarmoqqa lokal tarmog'idan kirish ta'minlangan. ARM xodimlarining 100 % kompyuterlar bilan ta'minlangan.

Filial "Axborot-resurs markazi"ga boshlabprofessor-o'qituvchilar o'z fanlaridan mukammallashtirib kengaytirilgan xamda talabalarni barcha so'rov va talablariga javob beradigan o'quv-uslubiy majmualarini tayyorlab asl nusxada va elektron shaklini topshirib ARM fondini boyitmoqdalar. Talabalar o'quv-uslubiy majmuani xar ikki ko'rinishidan xam keng ko'lamda foydalanmokdalar.

ARM elektron kutubxonasidagi mavjud kompyuterlar orqali talabalar va professor- o'qituvchilar Internetdan foydalanib, ularning kerakli fanlar uchun ma'lumotlar olish hamda Ziyonet tarmog'iga kirish imkoniyatiga ega. Bundan tashqari, quyidagi manzillardan www.ref.uz, www.uznews.net, www.google.uz, www.edu.uz, www.gov.uz foydalanish imkoniyati mavjud.

2010 yil Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tomonidan yaratilgan ARMAT-N avtomatlashtirilgan elektron kutubxona tizimiga adabiyotlarning elektron variantlarini kiritish ishlari olib borilmoqda. Hozirgi kunda KARMAT-N avtomatlashtirilgan elektron kutubxona tizimiga 1087 nomdagi adabiyotlar kiritilgan. ARM fondining necha 63% elektron bazasiga kiritilgan. Kitobxonlarning 90 % elektron manbalardan foydalanadi.

Hozirgi kunga qadar axborot – resurs markaz fondini to'ldirish maqsadida "Adolat" nashriyoti va G'afur G'ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uylari bilan shartnomalar tuzilgan bo'lib, adabiyotlar xarid qilib olish ishlari olib borilmoqda.

2-BOB ARM faoliyati boshqaruvi tizimi uchun Ma'lumotlar bazasini ishlab chiqish loyihalashtirish

1.Ma'lumotlar bazasini loyihalash bosqichlari

Hozirgi kunda kompyuter texnologiyalarini qo'llashda ko'pgina foydalanuvchilar uchun yagona axborot olamini ta'riflovchi axborot tizimlarini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bunday axborot tizimlari undan foydalanuvchilarni axborot almashinuv vositalari va apparat, dastur hamda axborot tarmog'i resurslaridan jamoa bo'lib foydalanishni ta'minlaydi.

Axborot tizimlarini loyihalash va yaratishda dastur ta'minotlari alohida o'rin tutadi. Dastur ta'minotlarida yarim asr mobaynida juda katta o'zgarishlar vujudga keldi: oddiy mantiqiy va arifmetik amallarni bajarishga qodir dasturlardan, to korxonalar boshqaruvinig murakkab tizimlarigacha. Dastur ta'minotlarini rivojlanish bosqichlarida doim ikkita yo'nalishni ajratish mumkin:

- hisoblashlarni bajarish;
- axborotlarni yig'ish va ishlov berish.

Dastlab kompyuterlar murakkab matematik hisoblashlarni bajarishga mo'ljallangan bo'lsada, hozirgi kunda ikkinchi yo'nalish yetakchi bo'lib kelmoqda.

MBBT sohasi bo'yicha axborot tizimlari o'zining funksiyalari, strukturasi, arxitekturasi va qo'llanilishi jihatidan juda katta farq qilishi mumkin. Ammo umumiy bo'lgan qator xususiyatlarni ko'rish mumkin:

- axborotlarni yig'ish, saqlash va ishlov berishga mo'ljallangan axborot tizimlari. Shu sababli uning negizida ma'lumotlarni saqlash vositasi va ma'lumotlarga murojat qilish usullari yotadi.
- hisoblash texnikalarini qo'llanilish sohasida yuqori malakaga ega bo'lmagan foydalanuvchilarga mo'ljallangan axborot tizimlari. Bunda axborot tizimlarining kliyent dasturlari oddiy, qulay va oson o'zlashtiriladigan dastur interfeyslardan iborat bo'lishi kerak. Bunday interfeyslar foydalanuvchiga ish uchun zaruriy bo'lgan barcha funksiyalarni taqdim etadi va boshqa ortiqcha harakatlarni amalga oshirishga imkon bermaydi.

Shunday qilib axborot tizimlarini qurishda ikkita asosiy masalani yechishga tug'ri keladi:


- axborotlarni saqlashga mo'ljallangan ma'lumotlar bazasini yaratish masalasi;
- klient dasturlarining foydalanuvchi interfeysini yaratish masalasi.

Fanning vazifasi - talabalarni axborot tizimlarining texnik tuzilishi va dasturiy ta'minoti bilan tanishtirish va bu vositalarni ishlab chiqarish, ilmiy tadqiqot ishlari, hamda o'quv jarayonlariga tadbiiq etish usullari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatishdan iboratdir

Ma'lumotlar bazalarini ishlab chiqishda 2 xil usuldan foydalanish mumkin. Birinchi usulda, avval asosiy masalalar aniqlanib, ularni hal qilish uchun baza yaratiladi hamda masalaning ma'lumotlarga bo'lgan ehtiyoji aniqlanadi. Ikkinchi usulda, muammo sohasining namunaviy (tipik) ob'ektlari birdaniga o'rnatiladi. Bu erda eng optimal usul - ikkala usulni birgalikda ishlatishdir. Bu dastlabki bosqichda barcha masalalar to'g'risida yetarlicha ma'lumotlarning yo'qligi bilan bog'liq[13].

Ma'lumotlar bazalarini loyihalashtirish jarayoni ikki bosqichga bulinadi: muammo sohasining ma'lumotlarining axborot-mantiqiy modelini (MAMM) ishlab chiqish va ma'lumotlar bazasining mantaqiy tuzilishini aniqlash. Axborot - mantiqiy model muammo sohasini axborot ob'ektlarining majmui va ular orasidagi tuzilmaviy aloqalar ko'rinishida aks etgiruvchi ma'lumotlar modelidir. Muammo sohasi ma'lumotlariniig axborot-mantiqli modelini ishlab chiqish muammo sohasini tekshirish natijasida olingan tavsifga asoslanadi (1 - rasm).

Muammo sohasining infologik modelini yaratish



1-rasm. MB loyihalash bosqichlari.

Muammo sohasining infologik modeli asosida kontseptual (mantiqiy), ichki (jismoniy) va tashqi modellar tuziladi.

MBning mantiqiy tuzilishi - ob'ektga tegishli bo'lgan axborotlarning MBda joylanishini ifodalaydi. Hosil bo'lgan MBning mantiqiy bog'lanish modeli ikkinchi bosqichining natijasi hisoblanadi. Bu modelda uch turli axborot ifodalanadi: ob'ekt to'g'risidagi xabarlar, ularning xususiyati va o'zaro munosabatlari. Har bir ob'ekt modeli yozuv turlari orqali ko'rsatiladi. Ularning xususiyatlari — yozuv maydonlari orqali ifodalanadi, munosabatlar esa yozuv va maydon turlari o'rtasidagi aloqalar yordamida tasvirlanadi. Bunday model EHM operatsion tizimining, MBBTning mohiyatiga bog'liq, bo'lmaydi, ya'ni axborotning ma'nosiga bog'liq bo'lmagan holda ularni ifodalash usuli va aloqasini ta'minlaydi.

Mantiqiy modelni rasmi va jadvalli usullar yordamida ifodalash mumkin. Rasmi usulda ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanish grafiklar yordamida tasvirlanadi. Bunda grafikning uchlari yozuvlarni ifodalaydi, qirralari esa yozuvlar o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadi. Jadvalli usulda ob'ekt to'g'risidaga ma'lumotlar bir yoki bir nechta ustundan iborat bo'lgan jadvallar orqali ifodalanadi.

Hozirgi vaqtda mantiqiy modellarning pog'onali (ierarxik), tarmoqli va relyatsion turlaridan foydalanilmoqda.

Ma'lumki, ma'lumotlar bazasi (MB) tushunchasi fanga kirib kelgunga qadar, ma'lumotlardan turli ko'rinishda foydalanish juda qiyin edi. Hozirgi kunga kelib bir necha turdagi ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari (MBBT) yaratilganki ular o'z dasturlash tillariga ham ega bo'lib, ular yordamida ma'lumotlar bazasini yaratish va shu bazadagi ma'lumotlar ustida ish yuritish imkoni mavjud. Ularga Clipper, Paradox, FoxPro, Oracle, Access va boshqalarni misol keltirish mumkin.

Bizning ARM ishini boshqarish uchun shakillantirilayotgan ma'lumotlar bazasi uchun kerakli dasturiy vositani tanlab olishimiz lozim bo'ladi. Barchamizga ma'lum va foydalanuvchi uchun qulay bo'lgan bunday dasturiy vositalarning bir qanchasini misol qilib keltirdik, lekin ular ichida MS Access alohida o'rin tutadi. Demak biz loyixalash ishlarini MS Access dasturiy paketidan foydalanib amalga oshirishimiz mumkin.

Bu MBBT ichida Access eng sodda va foydanuvchi uchun qulay bo'lgan, Microsoft Office tarkibiga kiruvchi dasturdir. Microsoft Access MBBT relyatsion modellar asosiga qurilgan bo'lib, unda tuziladigan MB jadvallar ko'rinishida aks etadi.

MBni loyihalash va jadval strukturasi tuzish. MBni loyihalash predmet sohasini tavsiflash asosida amalga oshiriladi. MB uchun zarur bo'lgan bu tavsiflash predmet sohasini ifodalovchi obyekt va jarayonlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ma'lumotlar bazasini yaratish uchun avvalambor uning strukturasi ishlab chiqish zarur. Buning uchun MBda maydonning quyidagi elementlarini aniqlash kerak bo'ladi:

Maydon nomi - MB jadvali ustunlari nomini aniqlaydi.

Maydon turi - MB jadvali ustunlariga qanday turdagi ma'lumotlarni yozish mumkinligini aniqlaydi. Maydon turlari quyidagilar bilan aniqlanadi:

“**Текстовый**”-simvulli (matnli) qiymatlarni bildirib, uning uzunligi 255 tagacha bo'lishi mumkin;

“**Числовой**” sonli qiymatlarni bildirib, uning diapazoni- $10^{307} \div +10^{308}$

“**Дата/время**” sana/vaqt qiymatini bildiradi;

“**Логический**” mantiqiy qiymatni bildirib, “True” va “False” qiymatlarni qabul qiladi;

“**Поля Мемо**” memo (izohli) bo'lib qatorli qiymatlarni qabul qiladi, har bir qator 255 tagacha simvol olishi mumkin. Memo ma'lumotlari maxsus fayllarda saqlanadi.

“**OLE объект майдони**” tashqi obektlarni joylashtirish uchun xizmat qiladi.

Masalan: fotografiya, videoyozuv va muzika fragmentlari.

Maydon o'lchami - MB jadvali ustuniga kiritiladigan ma'lumotlarning uzunlik o'lchovini aniqlaydi. Belgi (simvol) yoki sonlarning maksimal soni.

Sahifalarni loyihalash: Страницы obekti ma'lumotlar bilan bog'lanishning yangi bir ko'rinishi bo'lib, u internet tarmog'iga ma'lumotlar bazasini Wyeб sahifa ko'rinishida joylashtirishda ishlatiladi. Страницы obekti o'zida har xil boshqarish

yelementlarini olgan bo'lib, foydalanuvchi uchun interaktiv rejimni, ma'lumotlarni ko'rish, kiritish va taxrirlashni ta'minlaydi. Страницы obekti faylni .html formatida saqlaydi.

